

# Aholini ro'yxatga olish qanday amalga oshiriladi?

Image not found or type unknown



## Aholini ro'yxatga olish qanday amalga oshiriladi?

Mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchisi, tayyorgarlik bosqichi bo'lib, uch yilga yaqin vaqt davom etadi. Ikkinchisi, asosiy bosqich bo'lib, bunda bevosita aholini ro'yxatga olish amalga oshiriladi, ya'ni aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruvi o'tkaziladi va aholini ro'yxatga olish materiallari

topshiriladi. Bu taxminan ikki oy muddatni tashkil etadi. So'nggi bosqich qariyb uch yil davom etib, olingan ma'lumotlar kodlashtirish yordamida tahlil qilinib, natijalar e'lon qilinadi.

Ro'yxatga olish jarayonida to'planadigan statistik ma'lumotlar yagona elektron axborotlar tizimiga kiritiladi. Ya'ni bundan bu yog'iga qog'ozbozlikdan voz kechib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratiladi.

Ro'yxatga oluvchilarni tanlash ham eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ma'lumotlarning to'g'riligiga bevosita ayni ular mas'ul bo'ladi va shakllantirilgan ma'lumotlar real bo'lishi shart. Bu jarayonga jalb etiladigan xodimlar har xil yoshda va kasbda bo'lishi, birinchi navbatda, Davlat statistika qo'mitasi va uning viloyat, shahar va tuman bo'limlari xodimlari, statistika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, magistrLAR, shuningdek, tayanch doktorantlar bo'lishi mumkin.

Yoshi va kasbidan qat'i nazar, aholini ro'yxatga oluvchilar uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi va zarurat tug'ilsa, ularga qo'shimcha maslahatlar beriladi. Aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar amaldagi hujjatlarga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq belgilanadi. Jarayonni davlat byudjeti mablag'lari va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga moliyalashtirish ko'zda tutilgan.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga binoan, yakuniy ma'lumotlarni uch tilda e'lon qilinishi ko'zda tutilgan. Chora-tadbirlar dasturida aholini ro'yxatga olish natijalarini rasmiy chop etish, tarqatish, axborot bilan ta'minlash va e'lon qilish, aholini ro'yxatga olishning dastlabki va yakuniy ma'lumotlarini Ya'ni ma'lumotlar bilan tanishishning oxirgi chegara muddati belgilangan. Biroq agarda tezkor faoliyat yuritilsa, ushbu muddatdan oldin ham e'lon qilish imkoniyati mavjud.

Axborot xizmati